



Научно-образовательный электронный журнал

# **ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ**

**Выпуск №19 (том 3)  
(октябрь, 2021)**



Международный научно-образовательный  
электронный журнал  
**«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»**

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал  
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №19 (том 3) (октябрь,  
2021). Дата выхода в свет: 31.10.2021.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

## **РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

---

Батурин Сергей Петрович	кандидат исторических наук, доцент
Боброва Людмила Владимировна	кандидат технических наук, доцент
Богданова Татьяна Владимировна	кандидат филологических наук, доцент
Демьянова Людмила Михайловна	кандидат медицинских наук, доцент
Еремеева Людмила Эмировна	кандидат технических наук, доцент
Засядько Константин Иванович	доктор медицинских наук, профессор
Колесников Олег Михайлович	кандидат физико-математических наук, доцент
Коробейникова Екатерина Викторовна	кандидат экономических наук, доцент
Ланцева Татьяна Георгиевна	кандидат экономических наук, доцент
Нобель Артем Робертович	кандидат юридических наук, доцент
Ноздрина Наталья Александровна	кандидат педагогических наук, доцент
Павлов Евгений Владимирович	кандидат исторических наук, доцент
Петрова Юлия Валентиновна	кандидат биологических наук, доцент
Попов Сергей Викторович	доктор юридических наук, профессор
Табашникова Ольга Львовна	кандидат экономических наук, доцент
Тюрин Александр Николаевич	кандидат географических наук, доцент
Усубалиева Айнурा Абдыжапаровна	кандидат социологических наук, доцент
Фаттахова Ольга Михайловна	кандидат технических наук, доцент

## СОДЕРЖАНИЕ

Название научной статьи, ФИО авторов	Номер страницы
<b>ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ</b>	
СТЕПЕНИ СРАВНЕНИЯ НАРЕЧИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ИЗУЧЕНИЯ Барамзина Елена Сергеевна	22
КАК НАДО УПРАВЛЯТЬ ПРЕДПРИЯТИЕМ? Акрамов Рустамжон Алижон угли	25
МАВСУМИЙ ҚУРТ БОҚИШДА БАКТЕРИОЗ КАСАЛЛИГИ КАСАЛЛАНГАН ТУТ БАРГЛАРИ БИЛАН ОЗИҚЛАНТИРИШНИ ИПАК ҚУРТИНИНГ ЯШОВЧАНЛИГИГА ВА ПИЛЛАЛАРНИ ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ Беккамов Чоршанби Исмоилович, Мирзаева Ёрқиной Яркуловна, Сувонов Намозали Раимович	27
КАРДИОЭМБОЛИК ИНСУЛЬТИНГ ЭРТА НЕВРОЛОГИК АСОРАТЛАРИНИ ДАВОЛАШ Нурова Зарнигор Ҳикматовна	33
THE IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING ENGLISH Utepbergenova Damegul Najimatdinovna, Baxtiyorova Munira	40
ГЕОМЕХАНИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРИОРИТЕТА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ВНУТРЕННИХ СДВИГОВ В ГЛУБОКИХ КАРЬЕРАХ Ботиров Шохбос	43
FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDA ZAMONAVIY MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH Yuldashev Kamaraddin Bekturdiyevich	49
YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYANING АНАМІЯТИ Yuldasheva Mashxura Mo'minjonovna, Ibroximov Akmaldin Abdumalik o'g'li, No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	54
МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING АНАМІЯТИ Ismatullayeva Madinabonu	66
ПЕРСПЕКТИВА ПРАВОВОЙ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ- СИРОТАМИ И ДЕТЬМИ, ОСТАВШИМИСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ Сейранян Артём Арменович	69

<b>ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ КАК ВАЖНЕЙШЕЕ СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ</b> <b>Амонова Нафиса</b>	73
<b>ОБОГАЩЕННАЯ ТРОМБОЦИТАМИ ПЛАЗМА (PRP): СОВРЕМЕННОЕ ЛЕЧЕНИЕ ПЛЕКСОПАТИЙ</b> <b>Салохиддина Нозима Дилшодбек қизи</b>	78
<b>ДИАГНОСТИКА КАРДИОВАСКУЛЯРНОЙ ПАТОЛОГИИ И ОЦЕНКА РАННЕГО АТЕРОСКЛЕРОЗА ПРИ СИСТЕМНОЙ КРАСНОЙ ВОЛЧАНКЕ</b> <b>Баходиржонов.Т.Б., Хусанов Х.И.,Зияева Ф.К.</b>	84
<b>INFORMATIKANI O`QITISHDA O`QUVCHILAR BILIMINI TEKSHIRISHNING SHAKLLARI VA METODLARI</b> <b>Mamarajabov Siddiqboy Sanaqul o`g`li, O`rozboyev Mirjalol Abdivosi o`g`li</b>	88
<b>METHODS OF PROTECTION FROM COMPUTER VIRUSES</b> <b>Yuldasheva Nabiraxon Xoldarovna</b>	95
<b>KICHIK YURAGIMDA ULKAN ORZULAR</b> <b>Mubina Ortiqboyeva</b>	101
<b>5-6 YOSHLI BADIY GIMNASTIKACHILARNI EGILUVCHANLIK QOBILYATINI SHAKILLANTIRISH</b> <b>Maxmudova Sohiba</b>	102
<b>TABIY FANLARNI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO`LLASH TEXNOLOGIYASI</b> <b>Ikromova Yulduzoy Erkin qizi, Agzamova Dilfuza Akbarovna, Normurodova O`g`iloy Shuhrat qizi, Anorboyeva Umida Shuhrat qizi</b>	106
<b>MINIATYURA SAN'ATI ORQALI O`QUVCHILARNING BADIY IJODIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH</b> <b>Saparova Lola, Dauletnazarov Aybek</b>	111
<b>MINIATYURA SAN'ATI ORQALI O`QUVCHILARNING BADIY IJODIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH</b> <b>Sa'diyeva Rohat Bahritdinovna</b>	115
<b>МАКТАБАЧА ТА'LIM SOHASI PEDAGOGLARINING RAQAMLI SAVODXONLIGINI OSHIRISH</b> <b>Azimjonova Rushana Rashid qizi</b>	127
<b>BOSHLANGICH SINFLARDA NOMERLASH METODIKASI BO`YICHA ASOSIY TA'LIM DASTURI MAZMUNINING ME`YORLARI</b> <b>Xujaeva Muxarram Idrisovna</b>	132
<b>ГАРАНТИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРАВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН</b> <b>Якубова Дильфуза Матякубовна, Мадримова Шохиста Абдрам қизи, Сапарбаев Нематжон Хушнуд угли</b>	136

**ФИО авторов:** X.N. Muzaffarova

Jizzax DPI Maxsus pedagogika kafedrasи o`qituvchisi

O`raqova Gulbahor

Jizzax DPI Maxsus pedagogika kafedrasи 2-kurs magistranti

**Название публикации:** «HORIJY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI»

### **Annotasiya**

Maqolada aqli zaiflikning o`rta og`ir darajasidagi bolalarni hayotga va mehnatga tayyorlash masalalari, horijiy mamlakatlarda aqli zaiflikning o`rta og`ir darajasidagi bolalar bilan olib boriladigan ishlar bolalarni tarbiyalash va o`qitish rivojlantirish markazlari va xususiy maktablar qoshdagi maxsus maktablar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: aqli zaiflik, chuqur aqli zaiflar, pedagog, maxsus maktablar, tayyotlov sinflari, sensor

### **Аннотация**

В статье представлена информация о подготовке детей с задержкой умственного развития средней и тяжелой степени к жизни и работе, работе с детьми с задержкой умственного развития в зарубежных странах, центрах развития ребенка и частных школах.

**Ключевые слова:** умственная отсталость, глубокая умственная отсталость, педагог, спецшколы, учебные классы, сенсор.

Aqli zaiflikning o`rta og`ir darajasidagi bolalarni hayotga va qo`lidan keladigan mehnatga tayyorlash masalalari katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ularni o`qitish va tarbiyalashning turli shakillarini amalga oshirayotgan davlatlarning soni ortib bormoqda.

Ko`pgina mamlakatlarda aqli zaif bolalarga yordam berish qo`mitalari va assosiatsiyalari tashkil qilingan bo`lib, ular aqli zaif bolalarning ijtimoiy va mehnat

adaptatsiyasiga katta ahamiyat bermoqdalar. Horijiy mamlakatlarda aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalar bilan olib boriladigan ishlar to’g’rli shakllarga ega bo’lib mamlakatning umumiy darajasi, sog’liqni saqlashning ahvoli, nuqsonli bolalar bilan ishlashning tashkiliy usuli bilan bog’liqdir. Masalan: Aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalarni tarbiyalash va o’qitish rivojlantirish markazlari va xususiy maktablar qoshdagи maxsus maktablar sinflarida amalga oshirildi. Bundan tashqari chuqur aqli zaiflar internat-klinikalarda chaqaloqlikdan to qarigunlaricha yashashlari mumkin. Bolalar bilan olib boriladigan ishlar maxsus dastur bo’yicha olib boriladigan ishlarga sensomotor rivojlantirish, ijtimoiy mashq, xo’jalik maishiy mehnat, musiqa, nutqni rivojlantirish, yozuv, hisob kabi bo’limlarni kiritgan. Dasturda har bir bo’lim bo’yicha bolalarning qanday bilim, amaliy ko’nikmalar egallab olishlari aniqlangan. Masalan dasturning Xo’jalik-maishiy mehnat bo’limi quyidagi turdagи amaliy faoliyatni o’z ichiga oladi: tozalash, mayda topshiriqlarni bajarish, tugmalarni qadash, bolg’a va otverka bilan ishslash va h.k.

Ijtimoiy maishiy bo’lim aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalarda jamiyatda o’zini tutish, faollik va atrofdagilar bilan aloqaga kirishish darajasini oshirishni tarbiyalashga qaratilgan. Chuqur aqli zaiflar jamoat joylarida o’zini tutishni, yo’l qoidalirini o’rganadilar. Pedagog bilan birgalikda aqli zaif bolalar magazinlar, dorixonalarga boradilar. Ular politsiya, tez yordam, yong’inga qarshi komandalarning telefon nomerlarini bilishlari lozim.

Aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalarni ota-onalarini hamkorlikda ishslashga jalg etish katta ahamiyatga ega. Angilyada chuqur aqli zaif bolalar maxsus maktablar, tayyotlov sinflari va yopiq muassasalarda o’qitiladi. Ularning ko’pchiligi xususiy pullikdir.

Maxsus maktablarga aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalar 5 yoshdan qabul qilinadilar va qat’iy individual dastur bo’yicha o’qitiladi. Dastur o’qituvchi tomonidan tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlashadi. Kichik yoshlarda asosiy diqqat sensor va nutqiy rivojlanishga, o’z-o’ziga hizmat qilish malakalarini va predmetlar bilan turli ma’suliyatli harakatlar malakalarini hosil qilishga qaratildi. Katta

yoshlarda aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalar karmon qutichalar yasaydilar, maktab hovlisida mehnat qiladilar.

Dasturda alohida o’rin bolalarga xulqning ijtimoiy shakillarini singdirishga ajratilgan. Haftasiga eng kamida 1 marta o’qituvchi bolalarni, sayrga olib chiqishi va transport turlaridan foydalanishni, svetafor signallarini ajratishga, yer osti yo’llaridan o’tishga o’rgatadi. Aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalar turli vaziyatlarda, masalan-o’rtog’ining tug’ilgan kunida, kutibxonada, kasalxonada o’zini tutishni bilishi lozim. Bunday tadbirlar bolalarni jamiyatda moslashishga qaratilgandir. 16-18 yoshda aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalar maxsus bolalar muassasalaridan kasb tayyorgarlikning kunduzgi bo’limlariga o’tqazadilar. U yerda ma’lum bir amaliy ko’nikma va malakalarni egallab shu markazning ustaxonalarda ishlashga qolishlari va uyda yashashlari mumkin. Germaniyada chuqur aqli zaiflar ijtimoiy ta’limot vazirligiga qarashli yopiq muassasalarda yashaydilar yoki oilada yashab kundizgi reabilitatsion markazlarga qatnashadilar. Bunday markazlar haftasiga 5 marta ishlaydi. O’qituvchilar umum pedagogik ma’lumotdan tashqari maxsus defektologik ma’lumotlarga ega bo’lishlari lozim. Kundizgi reabilitatsiya markazlarida korreksion-tarbiyaviy ishlar ham olib boriladi.

Reabilitatsiya markazlari zamonaviy texnika bilan ta’minlangan. Qonun bo'yicha Germaniyada har bir chuqur darajadagi aqli zaif bolalar uchun davolov-mehnat ustaxonalari tashkil etilgan. Germaniyada aqli zaiflikning o’rta og’ir darajasidagi bolalar bolalar uchun katta maqsadli muassasalar va 20-30 ta boladan iborat guruhli uylar tashkil etilgan. Ushbu kategoriyalagi nuqsonli bolalar uchun maktab yoshi 6 yoshdan 18 yoshgacha deb o’rnatilgan. Ko’p yo’nalishli muassasalarga maktab internatlar, ustaxonalar uyi, o’quv-ishlab chiqarish kombenatlari kiradi. Ularning ko’pchiligi pullik. Bunday muassasalarning vazifalari tarbiyalanuvchilarni parvarish qilish, davolash va ularni o’qitish va ijtimoiy mosligini imkonyatlarini o’rganishdir. Bunday kompleks muassasalaridan ustaxonalar turli ishlarga mo’ljallangan: eng oddiy rangli gazlamalar qiyqimlarni va arqonlarni saralashdan to turli metall predmetlarni va asboblarni yasashdir. Uncha katta bo’limgan muassasalarni tashkil qilishning maqsadi oila muhitiga yaqinlashtirilgan sharoit yaratishdir. Oilada yashovchi chuqur aqli zaif

bolalar bo'lib, u yerda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari va elemntar amaliy bilimlar beriladi.

Yaponiyada aqli zaiflikning o'rta og'ir darajasidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish maxsus maktablarda va tayyorlov markazlarida amalga oshiriladi. Ko'p maktablarda faqatgina boshlang'ich emas, balki o'rta sinflar ham mavjud. Maktablarning asosiy maqsadi chuqur aqli zaiflarni hayotga va mehnatga tayyorlashdir. Shuning uchun yaxshi jihozlangan ustaxonlardagi ishlarga katta ahamiyat beriladi. Hozirgi vaqtda chuqur aqli zaif bolalar bilan ishlarga oila ko'p jalb etilyapti, tarbiyaning roli kuchaytirilyapti. Mutaxasis-defektolog va ota-onalar o'rtasidagi aloqa ota-onalarga nuqsonli bolalarni tarbiyalashda yordam beradigan maxsus xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Ba'zi mamlakatlarda oila uchun aqli zaiflikning o'rta og'ir darajasidagi bolalarnio'qitish uchun 2-2,5 yillik dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dastur bo'yicha aqli zaiflikning o'rta og'ir darajasidagi bolalar bolalar bilan haftasiga 1-2 marta pedagog-defektolog shug'ullanadi.

Polshada chuqur aqli zaiflar uchun alohida maktablar mavjud bo'lib, ular 1-8 sinflargacha o'zining o'quv rejasi va dasturga ega. O'quv rejasi quyidagilarni: o'z-o'ziga xizmat qilish, matematika, tasviriy faoliyat, musiqa va ritmika, ijtimoiy tarbiya, qo'l mehnati va ishlab chiqarish mehnatga tayyorlani o'z ichiga oladi. Bundan tashqari o'quv rejasi bo'yicha individual ishlar, korresiyalovchi gimnastika, shuningdek umum ta'lim predmetlariga o'qitishni kiritadi. Dastur bo'yicha quyi sinflarda ko'p ishlar sensor va nutqiy rivojlantirish va mayda motorinani trenovka qilish, elementar hisoblash opeasiyalarini o'rganish, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini o'rgatish bo'yicha ishlar olib boriladi. Yuqori sinflarda nutqiy rivojlantirish va sodda hisoblash malakalarini takomillashtirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi, ammo asosiy diqqat ishlab chiqarish mehnati va ijtimoiy adaptatsiyaga qaratilgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishlarni amalga oshirish chuqur aqli zaif bolalar jamiyat uchun og'ir yuk bo'lib qolmasidan, balki o'z mehnatlari bilan foyda keltirilishlarini ta'minlaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. X.N.Muzaffarova "Марказий асаб тизимида оғир жараҳатланиш кузатилган болаларнинг таълим-тарбияси". Monografiya Jizzax., JDPI 'Tahririy nashryot' 2020 yil
2. Muzaffarova, X. (2020). INTELLEKTIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/231](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/231)
3. Muzaffarova, X. (2020). Identification of mentally retarded children: Identification of mentally retarded children. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 5(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/556](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/556)